

QIMMATLI QOG'OZLARGA INVESTITSIYA KIRITISHDA FUNDAMENTAL TAHLILNING DOLZARBLIGI

Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

tayanch doktoranti,

Toshkent, O'zbekiston. Email: jakhangiryakhshibayev5866@gmail.com

ORCID: 0009-0005-8788-4391

THE RELEVANCE OF FUNDAMENTAL ANALYSIS IN INVESTING IN CORPORATE SECURITIES OF JOINT-STOCK COMPANIES

Yakshibayev Jakhangir Abdualimovich

Tashkent State University of Economics

PhD student,

Tashkent, Uzbekistan. Email: jakhangiryakhshibayev5866@gmail.com

ORCID: 0009-0005-8788-4391

Annotatsiya. Ushbu maqolada individual hamda institutsional investorlar jahon fond bozoridan listingdan o'tgan korporatsiyalar hamda mahalliy fond bozori listing talabini bajargan aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlariga investitsiya kiritishda e'tibor beriladigan hamda investitsion qarorlar qabul qilishda zarur bo'lgan fundamental tahlilning bajarilishi va ushbu tahlil natijasida investitsiya kiritilgan qimmatli qog'ozlarning daromadlilikini oshirish yo'nalishlari o'rganiladi. Tadqiqot O'zbekiston hamda Amerika fond bozoridagi korporativ tuzilmalarning moliyaviy boshqaruv, innovatsiyalar, dividend siyosati va investorlar bilan aloqalar kabi omillarga qaratilgan. Ushbu yo'nalishlar aksiyadorlik jamiyatlari aksiyadorlarining portfelidagi mavjud aksiyalarning bozor qiymatini oshirish va qo'shimcha tarzda fundamental kuchli hisoblangan korporatsiyalarning qimmatli qog'ozlariga sarmoya kiritish natijasida portfelini diversifikatsiya qilish bo'yicha tegishli xulosalar chiqarildi va tavsiyalar berildi.

Tayanch so'zlar: Aksiyadorlik jamiyatlari, qimmatli qog'ozlar, innovatsiyalar, dividend, investor, bozor qiymati, fundamental, investor, fond bozori.

Abstract. This article examines the fundamental, technical and sentimental analyses that individual and institutional

investors pay attention to when investing in the securities of corporations listed on the world stock market and joint-stock companies that have fulfilled the listing requirements of the local stock market, and the areas of increasing the profitability of the securities invested in as a result of these analyses. The study focuses on factors such as financial management, innovation, dividend policy and investor relations of corporate structures in the Uzbek and American stock markets. These areas are relevant conclusions and recommendations are made on increasing the market value of existing shares in the portfolio of shareholders of joint-stock companies and diversifying their portfolios by investing in the securities of corporations that are considered to be fundamentally strong.

Key words: Joint-stock companies, securities, innovations, dividends, investors, market value, fundamental, technical, sentimental, investors, stock market.

Kirish. Jahonda ro'y berayotgan siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy jabhadagi noaniqliklar shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda yirik aksiyadorlik jamiyatlari, korporatsiyalar o'zlarining rivojlanish strategiyalariga o'zgartishlar yoki qo'shimchalar kiritib borishini taqozo etmoqda va buning natijasida individual va institutsional investorlar ham o'zlarining qimmatli qog'ozlar portfelini yuqori

kutilmali risklardan diversifikatsiyalash uchun bir qancha tahlillarni olib borishi talab qilinadi. Fond bozorida korporatsiyalarning qimmatli qog'ozlariga sarmoya kiritayotgan investorlar uchun muhim bo'lgan fundamental tahlil, kompaniya qimmatli qog'ozlarini baholashning muhim usullaridan biri hisoblanadi. Fundamental tahlil, korporatsiyalarni baholashning eng oson va keng tarqalgan usullaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi kompaniyaning haqiqiy joriy qiymatini aniqlashdir. Ushbu tahlil investorlar uchun kompaniyaning kelajakdagi moliyaviy natijalarini bashorat qilishda muhim vosita hisoblanadi. Korporatsiyaning mavjud iqtisodiy ahvoli va uning bozoridagi pozitsiyasi haqidagi tahlillar investorlar uchun qarorlar qabul qilishda asosiy omil bo'lishi mumkin. Investitsiya kiritish uchun investorlar nafaqat muvaffaqiyatli biznesni tanlashlari kerak, balki bozorni tahlil qilib, yuqori kapitalizatsiyaga ega va yuqori likvidlikka (kunlik aksiya savdosi) ega kompaniyalarni tanlashlari zarur. Bu kompaniyalar bozorni keng qamrab olish va uzoq muddatda barqaror daromad olish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Kapitalizatsiya ko'rsatkichi kompaniyaning bozor qiymatini, ya'ni uning barcha aksiyalarining umumiy qiymatini ifodalaydi, shuningdek, bozorning o'zgaruvchanlik va risk darajasini ko'rsatadi.

Fundamental tahlilning yana bir muhim jihati shundaki, moliyaviy koeffitsientlar kompaniyaning umumiy iqtisodiy salohiyatini o'lchashda muhim rol o'ynaydi. Ular kompaniyaning rentabellik, likvidlik, qarz boshqaruvi va kapital strukturasini baholashda yordam beradi. Bularning barchasi kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va o'sish potentsialini kiritish maqsadida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan korxonalarni topishning o'zi yetarli emas. Ushbu fikrlar iqtisodchi olimlar tomonidan ham ta'kidlab o'tilgan. 1997-yilgi Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureanti Robert Merton moliya bozorida kapitalni to'g'ri taqsimlash va uni boshqarish bo'yicha quyidagi asosiy funksiyalarni ta'kidlab o'tadi.

“- kapitalni vaqt, tarmoqlararo va mamlakatlararo to'g'ri taqsimlash;

- kapital jamlash va korxonalarga ulush kiritish;

- to'lov-hisob-kitob;

aniqlashda katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, kompaniya faoliyati bilan bog'liq yangiliklar va o'zgarishlar ham fundamental tahlilning ajralmas qismi hisoblanadi. Yangi mahsulotlar chiqishi, rahbariyatdagi o'zgarishlar, innovatsion loyihalar yoki boshqa ijobiy yangiliklar kompaniyaning qiymatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, joriy iqtisodiy siyosat va hukumatning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslari kompaniyalar uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, masalan, inflyatsiya darajasi, ish bilan ta'minlash, iqtisodiy o'sish va foiz stavkalari, bozorning umumiy holatini va kompaniyaning o'sish istiqbollari tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkichlar investorlar uchun bozorning qanday rivojlanishi va kompaniyaning kelajakdagi daromad keltirishi haqida ma'lumot beradi.

Shunday qilib, fundamental tahlil korporatsiya faoliyatini, moliyaviy holatini va bozor iqtisodiyotidagi o'zgarishlarni birlashtirib, kompaniyaning haqiqiy qiymatini baholashda eng ishonchli vosita hisoblanadi. Bu investorlar uchun bozorni to'g'ri tahlil qilish va eng samarali investitsiya qarorlarini qabul qilishda yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Ta'kidlash joizki, fundamental tahlilning asosiy yo'nalishi kelajakda qimmatli qog'ozlar portfeli daromadlilik darajasini saqlab qolish maqsadida aksiyalarning haqiqiy qiymatini hisoblash uchun kelajakdagi foyda, dividendlar va risklarni bashorat qilishdir. Bugungi kunda investitsiya

- risklarni boshqarish;

- axborot;

-axborotlar assimetriyasi bilan bog'liq muammolarning oldini olish”.[3]

Fond bozori amaliyotida fundamental tahlildan foydalanish ayniqsa aksiyalar bilan uzoq muddatli savdolarni olib borish jarayonida ko'proq qo'l keladi. “Aksiyalar bozoriga investitsiya kiritish turli global va ichki omillar ta'siri natijasida murakkab va dinamik faoliyatdir. So'nggi yillarda xalqaro moliya bozorlarining o'zgaruvchanligi, AQSh foiz stavkalarining o'zgarishi va energiya inqirozi va mintaqaviy mojarolar

kabi geosiyosiy keskinliklar butun dunyo bo'ylab investorlarning kayfiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda".[4]

Shah, Isah va Zulkernin, Nti, Adekoya va Weyorilar xulosalariga ko'ra "ko'p qo'llaniladigan usullardan biri fundamental tahlilga asoslangan aksiyalarni tanlashdir".[5]

Natalis Christian va Frecky tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, "kapitalning rentabelligi (Return On Equity), aksiya boshiga balans qiymati (Book Value Per Share), har bir aksiyaga to'g'ri keladigan daromad ko'rsatkichi (Earnings Per Share), har bir aksiyaga to'g'ri keladigan dividendlar miqdori (Dividends Per Share) va kompaniya hajmi aksiyalar narxiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi". [6]


Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan S.E.Elmirzayev ham qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisida fundamental tahlilning dolzarbligi xususida o'z fikrlarini bayon qilgan. "Ma'lumki, aksiyaning real bahosi fundamental usul yordamida emitentning moliyaviy hisobotlari ko'rsatkichlari asosida hisoblanib, aksiyani joriy ichki (balans) bahosini ifodalaydi. Lekin aksiyaning bozordagi talab va taklif (bozor konyunkturasi) asosida shakllanuvchi bozor narxi aksiyaning real bahosidan qandaydir mavhumligi bilan farq qilishi mumkin, chunki bozor narxi ko'pincha ko'zga tashlanmaydigan spekuliyativ bozorda vujudga keluvchi sirli tendensiyalarni ham o'z ichiga oladi". [7]

Yuqorida keltirilgan fikrga qo'shimcha sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, fundamental tahlil korporativ

tuzilmalarning ichki imkoniyatlarini to'liq anglagan holda ularning qimmatli qog'ozlari daromadlilikini prognoz qilishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotni olib borish davomida ilmiy tadqiq etish, umumlashtirish, guruhlashtirish, taqqoslama usullar, iqtisodiy tahlil, statistika, qiyosiy taqqoslash, kuzatuv kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, kapital bozoriga investorlarni keng jalb etishda fond indekslarining mohiyati va ularning fond bozorida qimmatli qog'ozlar bozor bahosiga ta'siri hamda fundamental tahlil qilishda TESLA, NVIDIA, APPLE, META kabi texnologiya sektoridagi yirik bozor kapitaliga ega kompaniyalarning ma'lumotlaridan foydalanildi

Natija va muhokama. Fundamental tahlil bu kompaniyaning ichki (asosiy) qiymatini aniqlashga qaratilgan moliyaviy tahlil usuli bo'lib, u kompaniyaning moliyaviy hisobotlari, iqtisodiy sharoitlar va soha omillarini o'rganishga asoslanadi. Asosiy g'oya shundan iboratki, har bir aksiya o'zining "haqiqiy qiymati"ga ega, bozordagi narx esa qisqa muddatda o'zgarib tursa-da, uzoq muddatda bu haqiqiy qiymat bilan uyg'unlashadi. Fundamental tahlilning maqsadi aksiya bozordagi bahosidan qimmat yoki arzonligini aniqlash. Agar aksiya haqiqiy qiymatidan past baholansa, bu sotib olish signali hisoblanadi. Aksincha, aksiyaning bozordagi narxi ichki qiymatdan yuqori bo'lsa, uni sotish maqsadga muvofiq. Jahon amaliyotida korporativ tuzilmalarni fundamental tahlil qilishda asosiy uchta yo'nalishga e'tibor beriladi.



1-rasm. Fundamental tahlilning asosiy yo'nalishlari¹

¹ Tadqiqot natijalariga ko'ra muallif tomonidan shakllantirilgan

Fundamental tahlilning makroiqtisodiy tahlil yo'nalishida mamlakatdagi yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishi, inflyatsiya, foiz stavkalari, soliq siyosati, valyuta kurslari, siyosiy barqarorlik va global iqtisodiy tendensiyalar kabi omillarga e'tibor qaratilsa. Tarmoq tahlili yo'nalishida korporativ tuzilma faoliyat olib borayotgan sohadagi raqobat darajasi, texnologik rivojlanish, bozor holati, talab vataklif kabi me'zonlarga tayaniladi. Kompaniya ichki tahlili yo'nalishida esa moliyaviy ko'rsatkichlar, foyda, aktivlar, qarzlar, dividend siyosati, menejment sifati va strategiya, raqobat ustunliklari ("competitive

advantage") kabilarga tayaniladi. Aksariyat investorlar korporatsiyalarning qimmatli qog'ozlarini sotib olishda fundamental tahlilning kompaniya ichki tahlili yo'nalishiga nisbatan ko'proq e'tibor qaratishadi. Kompaniya tahlilida asosiy moliyaviy hisobotlar ya'ni balans, foyda va zarar hisobotlari, pul oqimlari hisobotlari bularga qo'shimcha ravishda ba'zi muhim ko'rsatkichlari kuchli tahlil qilinadi. Ushbu ko'rsatkichlardan birinchisi EPS (Earnings per Share) bo'lib bu ko'rsatkich kompaniyaning bir dona aksiya hisobiga to'g'ri keladigan sof foydasi me'yorini aniqlab beradi.

$$\text{EPS (Earnings per Share)} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{jami muomaladagi aksiyalar}}$$

Kompaniyalarda EPS ko'rsatkichi qancha yuqori chiqsa bu juda ijobiy holat deb qaraladi, lekin bu faqat kompaniyaning o'zi bilan emas, balki avvalgi yillardagi EPS bilan, tarmoqdagi raqobatchilar EPSi bilan, kompaniya hajmi bilan solishtirilgan holda

baholanadi. Ushbu taqqoslamalarda kompaniyaning EPSi yildan yilga eng kamida 10-15% o'sib borayotgan bo'lsa, bu barqaror rivojlanish belgisi, agar EPS o'sish surati 0% yoki manfiy bo'lsa, bu xavfli signal foyda pasaymoqda degani.

1-jadval.

Amerika fond bozoridagi mashhur kompaniyalarning 5 yillik EPS ko'rsatkichlari²

Kompaniya nomlari	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil II-chorak
Tesla	1,87\$	4,02\$	4,73\$	2,28\$	1,83\$
Apple	5,67\$	6,15\$	6,16\$	6,11\$	6,61\$
Microsoft	8,12\$	9,70\$	9,72\$	11,86\$	13,7\$
Amazon	3,30\$	-0,27\$	2,95\$	5,66\$	6,69\$
Meta	13,99\$	8,63\$	15,19\$	24,61\$	28,31\$
Google	5,69\$	4,59\$	5,84\$	8,13\$	9,48\$
Nvidia	0,18\$	0,39\$	0,18\$	1,21\$	2,97\$
Oracle	4,67\$	2,49\$	3,15\$	3,82\$	4,46\$

1-jadvalda AQSH fond bozorining texnologiya sohasida faoliyat yuritadigan yirik korporatsiyalarning oxirgi besh yillikdagi EPS ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda shunday xulosaga kelish mumkin barqaror rivojlangan va investorlar ishonchini oqlagan kompaniyalar uchun EPS ning ijobiy holati 2\$ dan 10\$ gacha bo'lgan va undan yuqori

narx diapazoni ijobiy holat deb baholanadi. Texnologiya sohasida faoliyat yuritadigan kompaniyalar uchun odatda 3\$ dan 15\$ narx oralig'ida bo'lishi investorlar uchun ijobiy holat sifatida qabul qilinadi. Endi rivojlanib kelayotgan va bozorda yuqori mavqega ega bo'lmagan nisbatan kichik korporatsiyalar uchun esa EPS 0 dan yuqori bo'lishining o'zi yetarli deb baholanadi.

² <https://stockanalysis.com/stocks/qcom/financials/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Kompaniya tahlili yo‘nalishining ikkinchi ko‘rsatgichi bu P/E ko‘rsatgichi hisoblanib ushbu ko‘rsatgich investorlarga aksiya fundamental narxining bozor bahosiga

nisbatan “qimmat” yoki “arzon” baholanayotganligini ifodalovchi muhim ko‘rsatgichlardan hisoblanadi.

$$P/E \text{ (Price to Earnings)} = \frac{\text{Aksiya bozor narxi}}{EPS}$$

bu ko‘rsatgich bozorning kompaniya foydasiga bo‘lgan ishonch darajasini bildirib agar P/E ko‘rsatgichi cheklangan qiymatlarda yuqori bo‘lishi investorlar kompaniyaning kelajakdagi o‘shishini

prognoz qilishadi. Aksincha P/Ening qiymati nisbatan talab qilinadigan me‘yordan past bo‘lsa kompaniya arzon baholangan yoki o‘shish imkoniyati pastligi ta’kidlanadi.

2-jadval

P/E ko‘rsatgichining “normal” qiymati³

P/E qiymati	Holati	Izoh
< 10	Arzon (undervalued)	Kompaniya foydasi yuqori, ammo bozor e’tiborsiz. Xavfli yoki yetarlicha o‘shish potentsiali yo‘q bo‘lishi mumkin.
[10:20]	Normal yoki adolatli baholangan	Aksariyat barqaror kompaniyalar shu diapazonda.
[20:30]	Qimmatlashgan	Bozor kelajakdagi o‘shishga ishonmoqda. O‘sayotgan texnologik kompaniyalarda normal holat.
30>	Juda yuqori (overvalued)	Investorlar kelajakda keskin o‘shish kutmoqda. Ammo bu pufak (bubble) xavfini bildirishi ham mumkin.

Jadval ma’lumotlariga tayanib shuni aytish mumkinki P/E ko‘rsatgichining me‘yorlari dunyo amaliyotida jadvalda keltirilgan qiymatlarda bo‘lishi orqali investstorlar kompaniya tahlilida tegishli xulosaga kelib qaror qabul qilishadi. Ba’zi istisno holatlarda P/E nisbati ko‘rsatilgan me‘yorlardan oshib ketsada kompaniya barqaror faoliyat olib borishi natijasida

investorlarning bunday turdagi kompaniyalarga qiziqishi yo‘qolmaydi bunga misol tariqasida texnologiya sektoridagi Tesla Incni aytishimiz mumkin ushbu kompaniyaning P/E ko‘rsatgichi me‘yordan ancha yuqori qiymatga ega bo‘lsada so‘ngi besh yillikda texnologiya sektorining bozor kapitali bo‘yicha yetakchilikni bermay kelmoqda.



2-rasm. Tesla kompaniyasi aksiyalarining so‘ngi besh yildagi bozor narxi⁴

³ <https://stockanalysis.com/stocks/qcom/financials/> sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁴ <https://finance.yahoo.com/quote/TSLA/> sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yahoo finance rasmiy sayti malumotiga asosan ushbu rasmda ko'rishimiz muminki Tesla kompaniyasining P/E ko'rsatgichi

so'ngi yillarda keltirilgan me'yorlardan yuqori bo'lishiga qaramasdan aksiyalarining bozor qiymati qariyb 185,82%ga o'sgan.


3-jadval.

Amerika fond bozoridagi mashhur kompaniyalarning 5 yillik P/E ko'rsatgichlari⁵

Kompaniya nomlari	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil II-chorak
Tesla	192,54\$	30,91\$	52,66\$	181,82\$	246,5\$
Apple	25,65\$	24,22\$	27,60\$	36,95\$	37,31\$
Microsoft	33,3\$	26,41\$	34,99\$	37,69\$	37,46\$
Amazon	50,68\$	-	51,61\$	38,94\$	33,00\$
Meta	23,77\$	13,60\$	23,28\$	23,70\$	25,58\$
Google	25,28\$	19,09\$	23,79\$	23,21\$	25,30\$
Nvidia	74,24\$	58,55\$	114,74\$	50,65\$	52,18\$
Oracle	16,52\$	28,57\$	33,64\$	30,77\$	69,83\$

Yuqorida ta'kidlangan fikrlarning tasdig'i sifatida ko'rishimiz muminki 3-jadvalda keltirilgan malumotlarda AQSH fond bozoridagi yirik kompaniyalarning P/E ko'rsatgichlari o'tgan besh yil davomida ko'rsatilgan me'yorlardan ancha katta faqarli qiymatga ega. Bunday hollarda investorlar kompaniyaga sarmoya kiritish chog'ida boshqa tahlil yo'nalishlariga ham urg'u berishlari lozim. Global iqtisodiy o'zgarishlar, kompaniyalar haqida


chiqayotgan turli xil xabarlar, davlat rahbarlarining boshqa davlatlardan mamlakatga import qilinayotgan tovar va ish xizmatlarga nisbatan boj to'lovlarini oshirish kabi keskin qarorlar fundamental kuchli bo'lgan kompaniyalarning aksiyalari bozor bahosiga ham kuchli tasir etishi mumkin



3-rasm. Meta, Nvidia, Google, Oracle kompaniyalarining likvidatsiyadan keyingi bozor holati⁶

⁵ <https://stockanalysis.com/stocks/qcom/financials/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁶ <https://elite.finviz.com/charts?t=META%2CNVDA%2CGOOG%2CORCL&p=i5%2Ci5%2Ci5%2Ci5&l=2h2v>



4-rasm. Tesla, Microsoft, Apple, Amazon kompaniyalarining likvidatsiyadan keyingi bozor holati⁷

3-4 rasmlarda joriy yilning 10.10.2025-yil sanasida ham xuddi shu kabi AQSH fond bozorida juda kuchli likvidatsiya sodir bo'ldi buning asosiy sababi AQSH prezidenti Donald Tramp Xitoy davlatiga 100% lik boj tariflarini shu yilning noyabr oyida kuchga kirishini e'lon qilgandan fond bozori kuchli likvidatsiyaga uchrab qariyb 1 trln dollar miqdorida, kriptovalyuta bozori esa 19 mlrd dollar bozor kapitalini yo'qotdi. Bu kabi keskin qarorlar kompaniyalarda kuchli fundamental tahlillar natijasida ham

Xulosa. Fundamental tahlil moliyaviy bozorlarda aktivlarning haqiqiy qiymatini aniqlash va ularning bozor bahosiga nisbatan qanchalik ortiqcha yoki past baholanganligini baholash imkonini beruvchi asosiy tahliliy yondashuv hisoblanadi. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, u kompaniya, tarmoq yoki butun iqtisodiyot miqyosida mavjud bo'lgan iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy omillarni chuqur o'rganish orqali aktivlarning ichki qiymatini aniqlaydi. Fundamental tahlilning asosiy maqsadi investitsiya qarorlarini qabul qilishda real ma'lumotlarga tayanish, spekulativ yondashuvlardan farqli o'laroq, uzoq muddatli istiqbolni baholashdir. Fundamental tahlil jarayonida makroiqtisodiy va mikroiktisodiy omillar muhim o'rin tutadi. Makroiqtisodiy tahlil

investorni biroz o'ylab qaror qabul qilishga undaydi. Bozor holatini yaxshilash fonida Donald Tramp Xitoy bilan muzokara o'tkazishi va yaxshilanishi haqida fikr bildirgach bozor hafta boshida kuchli GAP bilan yuqoriga qarab harakatlanganini ko'rishimiz mumkin.

mamlakat miqyosida YaIM o'sish sur'ati, inflyatsiya, bandlik darajasi, foiz stavkalari, fiskal va monetar siyosat kabi ko'rsatkichlarni o'rganishni nazarda tutadi. Mikroiktisodiy tahlil esa alohida kompaniyaning moliyaviy hisobotlari, daromadlari, xarajatlari, foydaliligi, dividend siyosati, kapital tuzilmasi va boshqaruv samaradorligi kabi omillarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Fundamental tahlil natijasida investorlar aksiyalar, obligatsiyalar yoki boshqa moliyaviy aktivlarning ichki qiymatini aniqlab, ularning bozor narxi bilan solishtirish imkoniga ega bo'ladi. Natijada, agar aktivning bozor bahosi ichki qiymatdan past bo'lsa bu aktiv investitsiya uchun jozibador hisoblanadi, aksincha, bahosi haddan tashqari yuqori bo'lsa, sotish yoki investitsiyadan voz kechish qarori qabul

⁷ <https://elite.finviz.com/charts?t=META%2CNVDA%2CGOOG%2CORCL&p=i5%2Ci5%2Ci5%2Ci5&l=2h2v> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

qilinadi. Shu tarzda fundamental tahlil investorlarning ongli va asosli qarorlar qabul qilishiga, risklarni kamaytirishga hamda kutilgan daromadni maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, fundamental tahlil kapital bozori samaradorligini oshirish, investitsiya oqimlarini real iqtisodiyot sektorlariga yo'naltirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida fundamental tahlil zamonaviy texnologiyalar, sun'iy

intellekt va "big data" yechimlari bilan uyg'unlashib, yanada chuqur va aniq natijalar beruvchi vositaga aylanmoqda. Fundamental tahlil nafaqat investorlar, balki moliya bozorlari ishtirokchilari, tahlilchilar, siyosatchilar va tadqiqotchilar uchun ham muhim ilmiy-amaliy vosita hisoblanadi. U iqtisodiy jarayonlarni to'g'ri talqin etish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va kapital bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi ishonchli poydevor bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
- 2.“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida. <https://lex.uz/docs/-2382409>
- 3.Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida. <https://lex.uz/docs/-2662539>
- 4.Merton, Robert C. "A Functional Perspective of Financial Intermediation." Financial Management 24 (1995).
- 5.Munir, Q., Akram, B. and Abbas, S. A. (2024) 'Understanding Stock Price Dynamics with Dividend-Related Metrics and Financial Indicators in Pakistan's Non-Financial Sectors', Journal of Business and Economic Options, 7(1), pp. 1–9
6. Shah, D., Isah, H. and Zulkernine, F. (2019) 'Stock market analysis: A review and taxonomy of prediction techniques', International Journal of Financial Studies, 7(2), p. 26.
- 7.Christian, N. and Frecky, F. (2019) 'Analisis Pengaruh Faktor-Faktor Yang Mempengaruhi Harga Saham Pada Perusahaan Yang Terdaftar Di Bursa Efek Indonesia', Jurnal
- 8.Moliya bozori: Darslik / S.Elmirzayev va boshqalar; – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 155-156 b
- 9.<https://finance.yahoo.com> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
- 10.<https://stockanalysis.com/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
- 11.<https://finviz.com/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
- 12.<https://www.tradingview.com/markets/stocks-usa/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
- 13.<https://www.macrotrends.net/?q=apple+free+cash+flow> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.